



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 77-82 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALARNING MAZMUN-MOHİYATI VA TURKUMLANISHIGA YONDASHUVLAR



Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o‘g‘li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosiy vositalarning mazmun-mohiyati va turkumlanishiga yondashuvlar yoritilgan. Asosiy vositalar tushunchasiga iqtisodchi-olimlar va soha mutaxassislarining ta‘rifi va yondashuvlari o‘rganilgan va mualliflik yondashuvi shakllantirilgan. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosiy vositalarni turkumlanishiga yondashuvlar berilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi korxonalari, asosiy vositalar, turkumlash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность и подходы к классификации основных средств в сельскохозяйственных предприятиях. Изучаются определения и подходы экономистов-ученых и специалистов отрасли к понятию основных средств, а также формулируется авторский подход. Приводятся подходы к классификации основных средств в сельскохозяйственных предприятиях.

Ключевые слова: сельское хозяйство, сельскохозяйственные предприятия, основные средства, классификация.

Abstract. This article examines the nature and approaches to classifying fixed assets in agricultural enterprises. It examines the definitions and approaches of economists and industry specialists to the concept of fixed assets, and formulates its own approach. Approaches to classifying fixed assets in agricultural enterprises are presented.

Keywords: agriculture, agricultural enterprises, fixed assets, classification.

Kirish

Dunyo amaliyaoti ko‘rsatishicha, asosiy vositalar ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy tashuvchisi bo‘lib, ularning to‘g‘ri hisobga olinishi, amortizatsiya siyosatini oqilona yuritish va ularning holatini baholash korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Statistika ma‘lumotlari ko‘ra, “2022-yilda dunyo bo‘yicha asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalar miqdori 26,55 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 27,55 trillion AQSH dollariga yetgan” [1]. Bundan ko‘rinadiki, asosiy vositalarga bo‘lgan investitsiya yildan yil ortib bormoqda.

Jahonda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Asosiy vositalarni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, ularni raqamlashtirish, asosiy vositalar hisobini takomillashtirish, asosiy vositalar qadrsizlanishi hisobini rivojlantirish, asosiy vositalar auditi jarayonida

shaffoflikni ta'minlash masalalaridagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, mulk shakllarining xilma-xillashuvi, xususiyl sektor ulushining ortib borishi asosiy vositalarni samarali boshqarish va ularga oid buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirishni talab qilmoqda.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatni barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholini turmush darajasini yaxshilash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, asosiy fondlardan samarali foydalanish yuzasidan bir qancha ustuvor maqsadlar belgilab qo'yilgan. Xususan, mamlakatdagi investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish borasida “Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiyl sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish” [2] vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish korxonalarining investitsion jozibadorligini ta'minlashga hamda asosiy fondlardan unumli foydalanish va ilg'or texnologiyalarni jalb etishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xorijlik iqtisodchi olimlar Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchacilar fikricha, “Asosiy vositalar - kompaniyaning uzoq muddatli mol-mulki bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish, ishlab bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish maqsadida foydalanadigan moddiy aktivlardir” [3].

Respublikamiz iqtisodchi olimlari A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev, S.A.Jumanazarovlar tomonidan asosiy vositalar tushunchasi boyicha quyidagi yondashuv keltirib o'tilgan: “Asosiy vositalar ko'p hollarda korxona aktivlarini asosiy qismini tashkil qiladi va shuning uchun moliyaviyl hisobotda uning moliyaviyl holatini ko'rsatishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar korxonaga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo'lsa va aktiv qiymatini aniq baholash mumkin bo'lsa, asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinadi” [4].

Mamlakatimizning ushbu soha mutaxassislari G.Q.Turayeva B.E.Matrasulov, S.I.Matkuliyeva, A.A.Abduvohidov, A.B.Muxametovlar o'z asarlarida asosiy vositalar tushunchasiga quyidagicha to'xatalib o'tgan: “Asosiy vositalar ob'yektlari buxgalteriya hisobida statistik hisobot talablariga muvofiq, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish bo'yicha guruhlanadi (masalan, noishlab chiqarish bo'yicha tarmoqlarga bo'linadi: sog'liqni saqlash, uyjoy, kommunal xo'jaligi va boshqalar.) va bundan tashqari funksional guruhlar bo'yicha: binolar, inshootlar, ishchi mashina va asbob-uskunalar va boshqalar)” [5].

Iqtisodchi olim F.G'.G'ulomova fikricha, “Asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriyl va ijtimoiyl-madaniyl vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir” [6].

5-son «Asosiy vositalar» nomli buxgalteriya hisobining milliy standartining 3a-bandiga asosan, “asosiy vositalar - korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriyl va ijtimoiyl-madaniyl vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir” [7] deyilgan. Asosiy vositalar

hisobini yuritishda korxona rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini mustaqil ravishda nisbatan kamroq miqdorda belgilashga haqlidir. Albatta asosiy vositalar qiymatining eng kam chegarasi "Hisob siyosati" da belgilab qo'yilishi kerak.

Asosiy vositalar tushunchasiga yuqorida berilgan ta'rif va yondashuvlarning e'tiborga molikligini e'tirof etgan holda quyidagi mualliflik yondashuvi shakllantirildi: "Asosiy vositalar - mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlar ko'rsatish yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun saqlanadigan, 12 oydan ortiq muddat davomida foydalaniladigan, moddiy-ashyoviy ko'rinishga ega bo'lgan, o'zining qiymatini mahsulot (xizmat) tannarxiga asta-sekin bo'laklab o'tkazib boriladigan mezonlariga javob beradigan moddiy aktivlardir".

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda iqtisodiy kuzatish, adabiyotlarni va boshqa manbalarni o'rganish, guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Asosiy vositalar turli belgilarga ko'ra tasniflanadi va har bir turi o'ziga xos funksional ahamiyatga ega hisoblanadi. Asosiy vositalarni turli mezonlar bo'yicha guruhlash mumkin. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan tasnifiy mezonlar va ularning asosiy guruhlari keltiriladi (1-jadval).

1-jadval

Asosiy vositalarni turkumlanishi¹

Turi	Ahamiyati
Binolar va inshootlar	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun muhit yaratadi
Mashina va uskunarlar	To'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi
Transport vositalari	Yuk va xodimlarni tashishda ishlatiladi
Ishlab chiqarish inventarlari	Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi

Asosiy vositalarni foydalanish maqsadi bo'yicha quyidagi turkumlashni amalga oshiriladi: *ishlab chiqarish vositalari* - mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan uskuna, mashina, asbob-uskunalar; *yordamchi vositalar* - operatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda (masalan, hosildorlik, material tashish, saqlash); *ma'muriy-maishiy vositalar* - ofis jihozlari, mebel, kompyuterlar, aloqa vositalari va boshqa ma'muriy faoliyatda foydalaniladigan vositalar; *transport vositalari* - avtomobillar, yuk mashinalari, traktorlar, yuk ko'taruvchi moslamalar va boshqalar; *ijara obyektlari* - agar korxona boshqa tarafdin ijaraga olgan yoki o'zida ijaraga berayotgan vositalar bo'lsa.

Shuningdek, asosiy vositalarni ishlatilish holati bo'yicha quyidagi ikki turga ya'ni: *doimiy foydalaniladigan vositalar* - har qanday sharoitda uzoq muddat ishlatiladi (binolar, katta mashinalar va h.k.); *qisman foydalaniladigan vositalar* - ma'lum davr yoki alohida holatlarda qo'llaniladigan vositalar (masalan, ehtiyot qismlar, zaxira uskuna).

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, asosiy vositalar jism ko'rinishda moddiy qiymatga ega bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak uni jism ko'rinishidan kelib chiqqan holda ham ya'ni: *qattiq moddiy vositalar* - binolar, konstruksiyalar, metal strukturalar; *yumshoq moddiy vositalar* - tekstil bilan bog'liq uskunalar yoki komponentlar (masalan, maxsus yostiq, pardalar) kabi ko'rinishda ham turkumlashimiz mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, asosiy vositalarni qayta taqsimlanish imkoniyatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda: *ajralib bo'ladigan vositalar* - agar bir qismi (masalan, nasos, motor) alohida ob'ekt sifatida ishlatilsa; *ajralmaydigan vositalar* - butun obyekt sifatida foydalaniladi, tarkibiy qismi alohida ob'ekt deb ajratib bo'lmaydi (masalan, bino, konstruktsiya).

Ba'zi korxonalar vositalarni turkumlashni amortizatsiya metodlari, eskirish tezligi va iqtisodiy jihatdan foydaliligi kabi omillar asosida ham qiladi. Masalan: *tez amortizatsiyaga duchor bo'ladigan vositalar* (keng foydalanish, intensiv ish sharoitida); *sezilarli amortizatsiyagacha kamroq ta'sir qiladigan vositalar*.

Har bir turkumlash mezonini aniq belgilanishi kerak. Masalan, "transport vositasi" yoki "ishlab chiqarish vositasi" tushunchasini bittasini ishlatishimiz, agar ikkalasi ikki xil ma'no bersa, ma'nolarni aniq asoslab berishimiz lozim bo'ladi.

Turli mezonlar bo'yicha turkumlash bir-birini inkor qilmasligi lozim; ya'ni vosita bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish vositasi ham bir qismi qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lishi mumkin - bu holatda mezonlar ustuvorligi aniqlanishi kerak. Hisobda vosita kirim qilinganda, uning turkumi, amortizatsiya normasi, foydalilik muddati va boshqa xususiyatlar aniqlanadi.

Turli standartlar (milliy va xalqaro) asosida turkumlash qoidalari bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobiga oid normativlari va milliy standartlar asosida "asosiy vositalar" bo'yicha maxsus kategoriyalar belgilangan.

Mamlakatimiz sharoitida asosiy vositalarni tasniflashning soha yoki tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda shuningdek ma'lum bir sohaning faoliyat xususiyati hamda foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda o'ziga xos usullarda amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat xususiyati hamda foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda asosiy vositalarni quyidagicha turkumlash tavsiya etiladi (2-jadval).

2-jadval

Qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat xususiyati hamda foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda asosiy vositalarni turkumlanishi²


No	Turkumning nomi	Mazmuni	Misollar
1	Yer	Mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadigan vositalar.	Yer maydonlari
2	Transport vositalari	Yer maydonlariga ishlov berishga, yuk yoki odam tashishga mo'ljallangan	Traktorlar, yuk mashinalari

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

		vositalar	
3	Yordamchi (xizmat ko'rsatuvchi) vositalar	Ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi vositalar.	Nasoslar, ventilyatorlar, ombor jihozlari, generatorlar
4	Bino va inshootlar	Foydalanish muddati uzoq bo'lgan, ishlab chiqarish yoki xizmat uchun mo'ljallangan doimiy tuzilmalar	Ofis binolari, omborxonalar
5	Ofis va ma'muriy texnika	Korxona boshqaruvida, hisobda, aloqada ishlatiladigan vositalar	Kompyuterlar, printerlar, telefon apparatlari, mebel
6	Zaxira va ijara vositalari	Zaxirada turgan yoki vaqtinchalik ijara berilgan/olingan vositalar	Ijaraga berilgan ombor, zaxira motorlar, foydalanilmayotgan transport vositasi

Xulosa

Qishloq xojaligida asosiy vositalarni hisobga olishda biz tomonimizdan berilgan ta'rifdan foydalanish maqsadga muvofiq boladi. Shuningdek iqtisodiy mazmuni nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, asosiy vositalar natural-moddiy tarkibiga ko'ra quyidagi rasmda keltirilgan guruhlariga ajratish taklif etiladi (**1-rasm**):



1-rasm. Asosiy vositalarning natural-moddiy tarkibiga ko'ra turkumi³

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1. https://ycharts.com/indicators/world_gross_fixed_capital_formation_usd?utm
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «“O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son F armoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. Warren, Carl S., Reeve, James M., Duchac Jonathan E. Financial and managerial accounting. 2016. 1402 p. <https://lib.hpu.edu.vn/handle/123456789/23848>
4. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. Buxgalteriya hisobi. Iqtisod-moliya, 2019-yil.
5. Turayeva G.Q., Matrasulov B.E., Matkuliyeva S.I., Abduvohidov A.A., Muxametov A.B. Buxgalteriya hisobi. Texnikum va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. 2023-yil.
6. G‘ulomova F.G‘. Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma. –T.: “NORMA”, 2009. -248 b
7. «Asosiy vositalar» nomli 5-son buxgalteriya hisobining milliy standarti. <https://lex.uz/mact/-821041>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

